

FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI AXBOROTNOMASI

ILMY JURNAL



2025
1/3

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI

ISSN: 3060-5121
№ 1 (3), 2025

“FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI” ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ВЕСТНИК АКАДЕМИИ МИНИСТЕРСТВА ПО ЧРЕЗВЫЧАЙНЫМ СИТУАЦИЯМ”

SCIENTIFIC JOURNAL “BULLETIN OF THE ACADEMY OF THE MINISTRY OF EMERGENCY SITUATIONS”

TOSHKENT – 2025

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi “Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi axborotnomasi” ilmiy jurnali

Bosh muharrir:	Bosh muharrir o‘rinbosari:	Mas’ul kotib:	Texnik muharrir:
Mamasiddiqov M.M. *O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi, yuridik fanlari doktori, professor*	**Ziyadullayev O.E.** *kimyo fanlari doktori (DSc), professor*	**Nasriddinov D.K.** *O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*	**Choriyev B.B.** *Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi kafedra katta o‘qituvchisi*

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI:

Rustambayev M.X.. – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor;

Shayakubov B.A. – O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi boshlig‘i, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Nurqulov F.N. – Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti, texnika fanlari doktori, professor;

Jumayev E.E. - Yangi O’zbekiston Universiteti, texnika fanlari doktori, professor

Mavlyankariyev B.A. - I.M.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz universiteti Toshkent shahridagi filiali professori, texnika fanlari doktori, professor, Butunjahon kompleks xavfsizlik fanlari Akademiyasi akademigi;

Xoliqulov D.B. - Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, texnika fanlari doktori, professor;

Nurmamatova R.R. - Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarining malakasini oshirish markazi, texnika fanlari doktori, professor;

Qodirov N.A. – Toshkent davlat texnika universiteti, texnika fanlari doktori, professor;

Murtazayev Q.M. - O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi, texnika fanlari doktori (DSc), dotsent;

Otamuxamedova G.K. - Chirchiq davlat pedagogika universiteti, kimyo fanlari doktori (DSc), dotsent;

Abdazimov Sh.X. – Toshkent Davlat transport universiteti, texnika fanlari doktori (DSc), dotsent;

Xolikova N.D. - Chirchiq davlat pedagogika universiteti, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent;

Abduraxmanova S.S. - O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Kurbanov X.A. – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari nomzodi, professor;

Boltaboyev R. – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, kimyo fanlari nomzodi, professor;

Eshmuxamedov M.A. – Toshkent davlat texnika universiteti, kimyo fanlari nomzodi, dotsent;

Dusmatova A.D. – Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot instituti, kimyo fanlari nomzodi, dotsent;

Sabirov E.E. – O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Lityaga A.V. – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;

Raupov D.R. – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;

Sharipov H.M. – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari nomzodi, dotsent;

Saidkarimova M.I. – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, pedagogika fanlari nomzodi;

O‘razbayev N.K. – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori;

Reimbayev R.S. – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Muradov J.N. – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori;
Yangiboyev X.N. – O‘zbekiston Respublikasi FVV Fuqaro muhofazasi instituti, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori;
Rustamov A.A. – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori;
Doschanov M.R. – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
Bolikulov J.S. – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori;
Junsaliyev D.M. – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori;
Karimov F.K. - O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Jurnal ommaviy axborot vositasi sifatida O‘zbekiston matbuot va axborot agentligida 2024-yil 19-aprelda ro‘yxatga olingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilganligi bo‘yicha 259550-raqamli guvohnoma berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 1-maydagi 176-son “Axborot-kutubxona sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatishning ayrim ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori talablari asosida “Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi axborotnomasi” ilmiy jurnaliga 2025-yil 3-mart kuni 3060-5121 xalqaro standart seriya raqami (ISSN) berilgan.

Ilmiy jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 20___-yil ___-_____dagi ___/___-son qarori bilan texnika fanlari bo‘yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. Litsenziya reyestri bo‘yicha tartib raqami S-5669537.

Jurnalda maqolalar o‘zbek, rus, ingliz tillarida chop etiladi va bir yilda to‘rt marotaba nashr etiladi.

© “Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi Axborotnomasi” ilmiy jurnali, 2025
© O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi, 2025

HARBIY XIZMATCHILAR OILA A’ZOLARINING TIBBIY TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Baqoyev Shahzod Hasan o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti
Oliy ta’limdan keying ta’lim fakulteti doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi mudofaa salohiyati va davlat xavfsizligini ta’minlashda harbiy xizmatchilar oila a’zolarining tibbiy-huquqiy himoyasi va tibbiy ta’minoti masalalari tahlil qilingan. Maqolada konstitutsiyaviy normalar, milliy strategiyalar, Prezident farmon va qarorlari, shuningdek xalqaro tajribalar asosida harbiy xizmatchilar oila a’zolarining tibbiy ta’minotini takomillashtirish zaruriyati asoslab berilgan. Amaldagi tizimda kuzatilayotgan muammolar – hududlar kesimida tengsizlik, byurokratik to‘siqlar, resurslardan samarali foydalanishdagi kamchiliklar, xususiy sektor imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotgani tahlil qilingan. Shu bilan birga, tibbiy-huquqiy tizimni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *harbiy xizmatchi oila a’zolari, tibbiy ta’minot, tibbiy-huquqiy himoya, tibbiy sug‘urta, davlat-xususiy sheriklik, ijtimoiy adolat, mudofaa salohiyati, sog‘liqni saqlash tizimi.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены вопросы медико-правовой защиты и медицинского обеспечения членов семей военнослужащих в обеспечении оборонного потенциала и государственной безопасности Республики Узбекистан. В статье обоснована необходимость совершенствования медицинского обеспечения членов семей военнослужащих на основе конституционных норм, национальных стратегий, указов и постановлений Президента, а также международного опыта. Анализируются существующие проблемы системы — неравенство по регионам, бюрократические барьеры, недостатки в эффективном использовании ресурсов, ограниченное привлечение возможностей частного сектора. Вместе с тем разработаны предложения по совершенствованию медико-правовой системы.*

Ключевые слова: *члены семей военнослужащих, медицинское обеспечение, медико-правовая защита, медицинское страхование, государственно-частное партнерство, социальная справедливость, оборонный потенциал, система здравоохранения.*

Annotation. *This article examines the issues of medical-legal protection and medical provision for the families of servicemen in ensuring the defense potential and state security of the Republic of Uzbekistan. The article substantiates the need to improve the medical provision for the families of servicemen based on constitutional norms, national strategies, presidential decrees and resolutions, as well as international experience. The current system’s problems—regional disparities, bureaucratic obstacles, inefficiencies in resource utilization, and limited engagement of the private sector—are analyzed. In addition, proposals are developed for improving the medical-legal framework.*

Keywords: *families of servicemen, medical provision, medical-legal protection, medical insurance, public-private partnership, social justice, defense potential, healthcare system.*

O‘zbekiston Respublikasining mudofaa salohiyati va davlat xavfsizligi bevosita harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarining ijtimoiy-iqtisodiy va tibbiy himoyasiga chambarchas bog‘liqdir. Tibbiy yordam va xizmatlarning sifatini oshirish,

zamonaviy tibbiy texnologiyalarni joriy etish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish — bularning barchasi harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga chinakam barqarorlik va ishonchni kafolatlaydi. Tibbiy ta’minot faqatgina ijtimoiy himoya emas, balki harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi va motivatsiyasi uchun ham asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli, harbiy xizmatchilar oila a’zolarining tibbiy ta’minotini yanada takomillashtirish — mamlakat mudofaa va xavfsizlik sohasining taraqqiyoti uchun dolzarb va strategik ahamiyatga ega. Bugungi kunda zamonaviy urush va xavfsizlik tahdidlari fonida harbiy xizmatchilar oila a’zolarining sog‘lig‘i va farovonligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasiga binoan har bir inson sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega[1]. Shu nuqtai nazardan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da **55-maqsad** “Ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish”, **56-maqsad** “Aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budjet mablag‘laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug‘urtalash amaliyotini joriy qilish”, **57-maqsad** “Tibbiy asbob-uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish”, **58-maqsad** “Dori-darmon va tibbiy buyumlar muomalasini tartibga solish hamda aholiga arzon va sifatli mahsulotlar yetkazib berish tizimini takomillashtirish”, **59-maqsad** “Birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, sohaga ajratiladigan mablag‘larni oshirish”, **61-maqsad** “Tibbiy xizmatlardagi xususiy sektorning ulushini 25 foizga yetkazish”, **62-maqsad** “Mamlakatda ishlab chiqariladigan dori-darmon va tibbiyot vositalarining ulushini 80 foizga yetkazish”, **64-maqsad** “Hududlarda birlamchi tibbiy xizmatni “bir qadam” tamoyili asosida tashkil etish”, **91-maqsad** “Harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolarining ijtimoiy himoyasini har tomonlama kuchaytirish” etib Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ularga ko‘rsatilayotgan tibbiy ta’minot sifatini yanada oshirish vazifasi belgilangan[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori[3] mamlakatda harbiy xizmatchilar va ularning oilalari uchun ijtimoiy va tibbiy himoya kafolatlarini yanada mustahkamladi. Ayniqsa, harbiy-tibbiy komissiya xulosasiga muvofiq harbiy xizmatchi oila a’zolarining (eri, xotini, farzandlari va harbiy xizmatchining qaramog‘idagilar) ushbu joyda yashash imkoniyati bo‘lmaganda harbiy xizmatchini yangi xizmat joyiga o‘tkazish, katta ofitserlarning oila a’zolari harbiy-tibbiy bo‘linmalar, harbiy qismlar va muassasalarda bepul tibbiy yordam olish huquqi e’tirof etildi. Bu norma harbiy xizmatchilarning sog‘lig‘i va huquqlarini amalda ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Professor N.V.Antipeva aytganidek, harbiy xizmatchilar va oila a’zolarining tibbiy huquqiy ta’minoti kafolatlangan bo‘lishi kerak[4]. Bu yondashuv inson xavfsizligi tushunchasining kengaytirilgan shakli — ya’ni faqat jangovar tayyorgarlik emas, balki ijtimoiy barqarorlik, oilaning sog‘lig‘i va barqaror ijtimoiy muhitni ta’minlashga qaratilgan mexanizmlarni ham qamrab oladi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tizimida tibbiy ta’minot sohasi bo‘yicha poliklinika va gospital tarmoqlari, zamonaviy laboratoriyalar va profilaktika markazlari faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Sattorov O.A ta’biri bilan aytganda “Oila sog‘lom bo‘lsagina – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir”[5]. Sog‘lom oila — sog‘lom jamiyatning hujayrasi, ayniqsa harbiy xizmatning stressli, doimiy ko‘chish va xavfli tabiati inobatga olinganda, bu kafolatlar strategik masalaga aylanadi. Oilaning muqaddas ekanligi aksiomasi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.

Amaldagi tartibga ko‘ra, katta ofitserlarning oila a’zolari (eri, xotini, o‘n sakkiz yoshga to‘lmasidan oldin nogiron bo‘lib qolgan o‘n sakkiz yoshdan oshgan farzandlari, ta’lim muassasalarida ta’limning kunduzgi shaklida tahsil olayotgan yigirma uch yoshgacha bo‘lgan farzandlari) harbiy-tibbiy muassasalarda bepul tibbiy yordam olish huquqiga egalar, shuningdek sobiq kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilarning katta ofitserlar va generallar tarkibi harbiy xizmatning umumiy davomiyligi yigirma besh yil

va undan ortiq bo‘lganda o‘zlari va turmush o‘rtoqlari harbiy-tibbiy muassasalarda bepul tibbiy ta’minot huquqidan foydalanishlari mumkin.

Uzoq yillar xizmat qilgan yuqori lavozimli harbiy xizmatchilarning oila a’zolari uchun davlat tomonidan bunday imtiyoz va kafolatlarning mavjudligi albatta e’tiborga molik va quvonarli holatdir. Ammo amaliyotda tibbiy ta’minot sohasida yechimini kutayotgan muammolar ham borligi inkor etib bo‘lmaydi.

Jumladan, uzoq yillar xizmat qilgan kichik ofitserlar, serjantlar va oddiy askarlar tarkibi oila a’zolarining bepul tibbiy ta’minoti masalasi ochiqligicha qolmoqda. Mazkur muammoli jihat, ayniqsa, Qurolli Kuchlar tizimidagi ijtimoiy adolat tamoyilini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masala yuzasidan Rossiya Federatsiyasida “Harbiy xizmatchilar maqomi to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq “Ofitserlarning oila a’zolari (xotini, eri, 18 yoshgacha bo‘lgan bolalari), shuningdek ularning qaramog‘idagi shaxslar harbiy-tibbiy muassasalarda bepul tibbiy yordam olish huquqiga ega” ekanligi belgilangan[6], Qozog‘iston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra esa “harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari davlat hisobidan bepul tibbiy xizmat olish huquqiga ega”[7]. Taqqoslashdan ko‘rinadiki, Rossiya va Qozog‘istonda ushbu kafolatlar barcha harbiy xizmatchilar (jumladan serjant va askarlar) oilalarini ham qamrab oladi. O‘zbekiston qonunchiligida esa faqat “katta ofitserlar va generallar” tarkibining oilalari uchun bunday huquq aniq kafolatlangan, bu esa tizimda ijtimoiy tenglik va motivatsiya muammosini keltirib chiqarishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, milliy qonunchiligimizdagi norma *“serjantlar va ofitserlarning oila a’zolari (eri, xotini, o‘n sakkiz yoshga to‘lmasidan oldin nogiron bo‘lib qolgan o‘n sakkiz yoshdan oshgan farzandlari, ta’lim muassasalarida ta’limning kunduzgi shaklida tahsil olayotgan yigirma uch yoshgacha bo‘lgan farzandlari) harbiy-tibbiy muassasalarda bepul tibbiy yordam olish huquqiga egalar”* deb o‘zgartirilsa, tizimda ijtimoiy adolat va harbiy xizmatga intilish kuchayadi, xalqaro standartlarga yaqinlashiladi va harbiy xizmatchilar oilalarining ijtimoiy himoyasi yanada mustahkamlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning harbiy xizmatga qabul qilinishida sog‘lig‘i birlamchi mezon sifatida baholanadi. Shu sababli, harbiy xizmatchilar va

ularning oila a’zolari uchun tibbiy ko‘riklar majburiy va doimiy monitoring asosida tashkil etiladi. Hozirda harbiy tuzilmalarda maxsus harbiy-tibbiy komissiyalar faoliyat yuritib, xizmatga yaroqlilik darajasi va tibbiy kafolatlar yuzasidan xulosalar chiqarilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-sonli qarori bilan namunaviy “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ofitserlar tarkibiga mansub lavozimlardaharbiy xizmatni o‘tash to‘g‘risida kontrakt”da harbiy xizmat sharoitlari, kasbiy xavflar va oilaning huquqlari to‘liq ochib berilishi kerak. Biroq, amaliyotda xizmatning xavf-xatarlari, oilaviy daxlsizlik va oila a’zolariga beriladigan imtiyozlar bo‘yicha batafsil ma’lumotlar yetarlicha aks ettirilmagan. Harbiy mehnatning sog‘liqqa xavfli va o‘ta og‘ir sharoiti bilan bog‘liq lavozimlar va harbiy hisob mutaxassisliklari ro‘yxati[8] tor, aniq lavozimlar ko‘rsatilmagan. Bu esa ba’zi lavozimlarda xizmat qiluvchilar uchun individual tibbiy kafolatlar real hayotda amaliy ahamiyatga ega emasligi kuzatilmoqda.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra harbiy xizmatchilarning oilalarini ijtimoiy himoya qilish va tibbiy qo‘llab-quvvatlash sohasida qator huquqiy va amaliy choralar joriy etilgan[9].

Hozirgi kunda tibbiy ta’minot borasida Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining oila a’zolari tibbiy ta’minotdan to‘laqonli foydalana olmayapdi desak adashmagan bo‘lamiz. Masalan, harbiy xizmatchilar og‘ir iqlim sharoitli hududlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Surxandaryo viloyati, Qorovulbozor tumani, Muborak tumani, Qamchiq dovonida, shuningdek dengiz sathidan 2500 m va undan baland bo‘lgan tog‘li hududlarda yoki Respublikadan tashqarida og‘ir iqlimli davlatlar)da xizmatni o‘tash uchun qabul qilinganda yoki yuborilganda milliy qonunchilikka asosan o‘zi va oila a’zolari tibbiy ko‘rikdan o‘tishi lozim[10]. Ammo, amalda bu faqatgina harbiy xizmatchining o‘zi bilan cheklanib qoladi, bunda ham yozma murojaat qilsagina.

N.Normatov keltirgan ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ya’ni xususiy tibbiy muassasalar soni **1,5 mindan** oshgani, xususiy amaliyot bilan shug‘ullanayotgan shifokorlar soni esa **2 ming** atrofida ekani, o‘z navbatida davlat sog‘liqni saqlash tizimi va xususiy tibbiyot o‘rtasida sog‘lom raqobat shakllanadi[11].

Albatta, fikr dolzarb va bahsli. Fikrimizcha, xususiy tibbiy xizmat mutaxassislarini murakkab jarrohlik amaliyotlariga mehnat haqqini davlat byudjetidan qoplab berish evaziga jalb qilish davlat va xususiy sektorni o‘zaro hamkorligining dastlabki bosqichi bo‘ladi. Shuningdek harbiylarning oilalari uchun tibbiy sug‘urta tizimini joriy qilish maqsadga muvofiq.

Huqushunos olim M.G‘ulomovning ta’kidlashicha “hukumat qarorlari asosida urush qatnashchilari va nogironlari, ularga tenglashtirilgan shaxslarga ambulatoriya tartibida davolanganida dori-darmonlari davlat hisobidan bepul ta’minlanishi belgilangan. Tahlillar ko‘rsatyapdiki, amalda imtiyozlardan bu toifadagi fuqarolar to‘liq foydalanmayapti. Nega? Hamma ham bunday imtiyozlar borligidan xabardor emas”[12]. Olimning fikrlariga to‘liq qo‘shilamiz. O‘zbekistonda harbiy-tibbiy muassasalar tibbiy xizmatlar ko‘lamini yildan-yilga kengaytirmoqda. Biroq, mavjud resurs va imtiyozlar barcha harbiy xizmatchilar oilalariga teng va to‘liq yetib borishini ta’minlashda axborot tarqatish, monitoring va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish muhim. Olimlarning tahlillari va amaliy natijalar o‘rtasida tafovut borligi — tizimni real ehtiyojlar asosida isloh qilish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Harbiy xizmatchilarning oila a’zolariga nisbatan tibbiy va ijtimoiy himoya kafolatlarining to‘liq va samarali ishlamasligi, bevosita jamiyatda adolat va ishonch muhitining shakllanishiga, harbiy xizmatning ijtimoiy nufuzi va aholining vatanparvarlik kayfiyatiga ham bevosita ta’sir etadi. Tizimdagi hal qilinmagan masalalarning bartaraf etilishi esa, bir tomondan, harbiy xizmatchilar oilalarining hayot sifati va salomatligini oshirsa, ikkinchi tomondan, davlat va jamiyat barqarorligining mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagilar taklif etiladi:

birinchidan, serjantlar va ofitserlarning oila a’zolari (eri, xotini, o‘n sakkiz yoshga to‘lmasidan oldin nogiron bo‘lib qolgan o‘n sakkiz yoshdan oshgan farzandlari,

ta’lim muassasalarida ta’limning kunduzgi shaklida tahsil olayotgan yigirma uch yoshgacha bo‘lgan farzandlari) harbiy-tibbiy muassasalarda bepul tibbiy yordam olish huquqini berish;

ikkinchidan, harbiy xizmatchilar ota-onasini xususiy sektorda va/yoki harbiy tibbiy muassasada imtiyozli davolatish imkoniyatlarini yaratish;

uchinchidan, harbiy xizmatchilar oila a’zolarining tibbiy sug‘urtasini joriy etish;

to‘rtinchidan, tibbiy xizmat autsorsingini ishlab chiqish.

Mazkur yo‘nalishda kompleks yondashuv asosida tub islohotlarni amalga oshirish va harbiy xizmatchilar oilalarining tibbiy himoyasini amalda ta’minlash O‘zbekistonning harbiy-siyosiy va ijtimoiy taraqqiyotining eng muhim shartlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 120 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 son farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ-4447-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/-4513434.
4. Антипьева Н.В. Социальное обеспечение военнослужащих: проблемы правового регулирования. Автореф. дисс.док-ра.юрид.наук. Санкт-Петербург.2010. - С.11.
5. Sattorov O.A. Odam savdosiga qarshi kurashda mustahkam oilaning o‘rni. Mustahkam oila – huquqbuzarliklarning oldini olish garovi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. O‘zb.Res. IIV akademiyasi. Toshkent-2012. B.158.
6. https://base.garant.ru/178792
7. https://www.gov.kz/situations/430/1067
8. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2019-yil 3-aprelda 3147-son bilan ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni tashkil etish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga 7-ilova. “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2019-yil, 14-son, 272-modda.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-martdagi “Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-34 son farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. www.lex.uz.
10. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2019-yil 3-aprelda 3147-son bilan ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni tashkil etish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 5-bobi. “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2019-yil, 14-son, 272-modda.
11. Fayziyev Sh., Normatov N. va boshqalar. Yangi qonun mohiyati. Mas’ul muharrir Fayziyev Sh. – T.: Ilm-ziyo, 2009. – 156 b.
12. G‘ulomov M. Mahalla – fuqarolik jamiyatining asosi. T.: “Adolat”, 2003, 127-bet.

MUNDARIJA

Вахабов Б.	Математическое моделирование атмосферных процессов над горным регионом на основе гидротермодинамической системы уравнений в σ-координатах.....	4
Matyakubov A.S. Raupov D.R.	Nodivergent ko‘rinishdagi nochiziqli parabolik tenglama blow-up yechimlarini baholash.....	11
Vaxabov B.	Ko‘p kanalli rad etish joriy qilingan ommaviy xizmat ko‘rsatish tizimlarini matematik modellashtirish.....	17
Do‘smatov X.M. Jumaniyozova T.A. Xodjayev F.M.	Olovbardosh silikat tarkiblar olishning zamonaviy usullari.....	24
Sabirov E.E. Mirkarimov M.M.	Mahalliy mineral xom ashyolar asosida yangi suspenziyalarni olish va ularning yong‘in o‘chirish samaradorligi baholash.....	32
Jumayev S.Q. Ilashov Z.R. Yalgashev O.U. Kendjaboyev D.A.	Yonuvchi suyuqliklar to‘kilganda uni yonishidan oldin samarali yig‘ib olish texnologiyasini takomillashtirish.....	40
Хатамов Б.Б. Кулдашев И.Х.	Метод исследования влияния температуры на пропускную способность приемника в виде кремниевого фотоэлектронного умножителя.....	46
Murtazayev Q.M., Jabborov J.F.	Elektron hujjat boshqaruvi tizimini loyihalash va amalga oshirish.....	53
Suleymanov A.A. Xurramov Sh.Z. Gulyamov Ya.I.	Elektromagnit to‘lqinlarning suv ostida tarqalish xususiyatining tahlili.....	61
Maxkamov N.Ya. Asamov Sh.B.	Avtomobil shinalarining ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq dolzarb muammolar va ularning yechimlari.....	68
Maxkamov N.Ya. Yangiboyev X.N.	Xitoy yong‘in xavfsizligida sun’iy intellektni joriy etish bilan bog‘liq muammolar va yechimlari.....	73
Teshaboyev B.A. Pardayev Z.E.	Toshkent zilzilasi oqibatlarini bartaraf etish va qayta tiklashda fuqaro muhofazasi tizimining o‘rni.....	78
Choriyev R.X.	Ishg‘ol qilish narvoni bilan o‘quv minorasining to‘rtinchi qavatiga ko‘tarilish mashqining ilmiy-nazariy tahlili.....	84
Xujanov Ch.R. Sabirov E.E.	Tungi bajariladigan yong‘in-qutqaruv saf me’yorlarining tuzatish qiymatlarini ishlab chiqish.....	91
Teshaboyev B.A. Pardayev Z.E.	Chernobil atom elektr stansiyasi (chaes)da sodir bo‘lgan texnogen vaziyatni bartaraf etishda fuqaro mudofaasi (muhofazasi) tizimining ahamiyati.....	107
Kamolov L.A. Abdusharipov O‘.R.	Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishlariga chidamlilikni oshirish.....	113

Xujanov Ch.R. Gafurov B.B.	Harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlashning yo‘llari va usullari.....	120
Murtazayev Q.M. Hafizov F.O. Qurbonov B.S. Nortillayev K.D.	Qutqaruv jarayonlarida foydalaniladigan texnik to‘qimalar bo‘yicha tadqiqotlarni o‘rganish.....	132
Mirzaev Sh.D. Xujanov Ch.R. Qulmatov R.S.	Yong‘in-qutqaruv qismlarini ish faoliyati samaradorligini oshirishda kompyuterli modellashtirishning o‘rni.....	140
Rustambayev M.X.	Jinoiy nojo‘ya qilmish kodeksi: dekriminalizatsiya va yangi huquqiy paradigma sari.....	150
Mamasiddiqov M.M.	Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimlarida yuridik ta’lim: ilg‘or xorijiy tajribalar, tahlil va mulohazalar……..	159
Begatov J.N.	Favqulodda vaziyatlarda inson huquqlarini kamsitishni taqiqlash (mehnat huquqi misolida).....	169
Karimov S.R.	Voyaga yetmaganlarning uy-joyga bo‘lgan huquqlarini ta’minlashga qaratilgan qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati: milliy qonunchilik va xorijiy tajriba……..	174
Islamov B.Dj.	Sud faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish: muammolar va takliflar……	185
Maxmudov K.S. O‘razbayev N.K.	O‘zbekistonda oila farovonligini ta’minlashning ayrim jihatlari: yangicha islohotlar va natijalar.....	191
Nasriddinov D.K.	Harbiy mutaxassislar tayyorlashda fizika fanidan mobil ilovalar hamda robototexnik tizimlarni loyihalash usullarining ilmiy pedagogik asoslari. Mobil ilovalar hamda robototexnik tizimlarda muhandislik loyihalash.....	202
Jumaniyozova T.A.	“Polimerlar kimyosi” modulini o‘qitishda kursantlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish.....	209
Nasriddinov D.K.	Oliy harbiy ta’lim jarayonida mobil ilovalar hamda robototexnika elementlaridan keng foydalanish orqali fizika fanidan ilmiy-texnik tadqiqotlarni tashkil etish.....	220
Baqoyev Sh.H.	Harbiy xizmatchilar oila a’zolarining tibbiy ta’minotini takomillashtirish muammolari va istiqbollari.....	229
MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR.....		236
ТРЕБОВАНИЯ ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫЕ К СТАТЬЯМ.....		243
REQUIREMENTS FOR ARTICLES.....		250